



SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA MA'RIFATPARVAR ALLOMALARIMIZNING TA'LIM RIVOJIGA QO'SHGAN HISSALARI

Nabiyeva Dilfuza Temirovna

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika

instituti o'qituvchisi

nabiyevadilfuza07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi ta'lim tizimimizga o'z hissalarini qo'shgan, ta'mal toshini qo'yib bergan buyuk ma'rifatparvar ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya tarbiya haqidagi fikrlarini ko'rib chiqish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviyatini rivojlantirish.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasasi, ta'lim tizimi, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, ajdodlarimiz.

Аннотация: В этой статье, рассматривая мысли наших великих просвещенных предков, которые внесли свой вклад в нашу сегодняшнюю систему образования, которые заложили фундамент будущей начальной школы, о развитии духовности учителей.

Ключевые слова: Высшее учебное заведение, система образования, учителя начальных классов, передовые педагогические технологии, наши предки.

Abstract: In this article, by considering the thoughts of our great enlightened ancestors who contributed to our present day education system, who laid the foundation stone, the future primary school o to develop the spirituality of teachers.

Key words: Higher educational institution, educational system, primary school teachers, advanced pedagogical technologies, our ancestors.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisga murojaatnomasida¹ ham “Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarning ma’naviy va ma’rifiy sohasini doimiy yuksaltirish birinchi darajali ahamiytga egadir.

Shu bois, “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoiylik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish o‘ta sharaflı vazifadir”, deb alohida ta’kidlaganlar [2].

“Usluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” 2019-yil 31-dekabr “Vatanga sadoqat, burch va ma’naviyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgan holda, uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlari haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotida o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, Konsepsiyada Ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilar faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari shu jumladan, ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligi” alohida ta’kidlangan [1]. Bugungi kunda SETEM orqali fanlarni o‘zaro integratsiyalash, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llab o‘quvchilarni darslikni o‘qishga majburlamasdan, zamonaviy metodlar orqali mavzuni qiziqarli qilib yoritish, o‘quvchini egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olishlariga erishish dolzarb muammolardan biri hisoblanda.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o‘z – o‘zidan ta’lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyati va uning yangilikka intilishi, motivatsiyasiga bog‘liq jarayonligini uqdirish, o‘qituvchi faoliyatini o‘zgartirmay turib, uning mas‘uliyati va faolligini oshirmasdan ta’limda bir qadam oldinga siljib bo‘lmasligini anglamoglari lozim [3].



Bu borada uzoq tariximizning milliy pedagogikasidan ham ayon. Buyuk ajdodlarimiz doimo ta'lim tizimi taraqqiyotiga o'zlarining yangi g'oyalarini ilgari surganlar va uni ta'lim tizimiga tatbiq etish xarakatida bo'lganlar. Shu sababli ham Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ustozlari o'z asarlarida ta'limda yangiliklarni izlash va qo'llashga alohida e'tibor berganlar. Yangi g'oyalar, yangiliklar, yangicha yondashuvlarni ta'limga joriy qilish bo'yicha tinmay aqliy kurash olib borganliklarini ko'rish mumkin. Sharqning buyuk allomalari Muxammad ibn Muso al – Xorazmiy, Axmad al – Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Abulqosim Maxmud ibn Umar az-Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxriddin Muxammad Boburlar yangi ilg'or pedagogik fikr namoyondalaridir.

Jahon ilm – ma'rifatining buyuk nomoyondasi Abdullox Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy matematika fani sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi va pedagog uslubiyatchi olim sifatida matematika fanida obstraksiya (mavxumlilik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo'li bilan umumiy yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish, ta'limda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga suyanish, savol – javob, baxs – munozara kabi ta'lim usullarini keng qo'llash, olgan bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish to'g'risida to'xtalib: "...sezgi orqali bilish, bu qilgan bilim bo'lsa, mantiqiy bayon, aqliy bilish esa, haqiqiy bilishning muhim tomonini bayon etadi. ...Insonning xulq – atvori, xatti – harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin" - degan xulosaga keladi.

Mashxur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilim, fikr doirasining kengligi bilan "Sharq Arastusi" yoki "Al muallim alsoniy" (Ikkinchi muallim) nomlariga sazovor bo'lgan Abu Nasr al-Farobiy (870-950) ta'lim – tarbiyaning besh g'oyasi, maqsadi va o'qitishning vosita va usullari haqida fikr yuritadi. Uning fikricha: "Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar



oʻrtasidagi tugʻma fazilat va amaliy kasb – hunar fazilatlarini birlashtirish degan soʻzdir. Taʼlim faqatgina soʻz va oʻrganish bilangina boʻladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, yaʼni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat boʻlgan ish – harakat, kasb – hunarga berilgan boʻlishi, oʻrganishidir” – deydi. U taʼlim – tarbiyaning oʻrganish usullarini atroflicha yoritib beradi.

Abu Rayxon Muxammad ibn Axmad al – Beruniy (973-1048) taʼlim – tarbiyani amalga oshirishda talabalarni zeriktirmaslik va xotirasini toliqtirmaslik uchun oʻrganiladigan fanlarni yangisi bilan almashtirib turish zarurligi va oʻqitishda turli yangi taʼlim usullaridan foydalanish haqidagi ilgʻor fikrlari xozirgi davr uchun ham dolzarbdir. “Agar talaba bir masaladan boshqa masalaga oʻtib tursa, u xuddi turli – tuman bogʻlarda sayr qilganidek boʻladi, bir bogʻdan oʻtar – oʻtmas, boshqa bogʻ boshlanadi. Kishi ularning hammasini koʻrgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bagʻishlaydi” – deydi.

Sharqda “Shayx – ul rais” (Olimlar raisi) unvoni bilan mashhur boʻlgan Xusayn ibn Abdulloh ibn al-Xasan Ali ibn Sinoning (980-1037) “Tadbir ul manozil” asarida bayon etilgan oʻqitish usullari hozirgi davr taʼlimotlariga mos kelishi ham nazariy, ham amaliy jixatdan qimmatlidir. “Bola baqquvat boʻlib, soʻzlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlagandan soʻng u savod oʻrganishga qobil boʻladi, shundan soʻng savodga oʻrgata borish mumkin”. Ibn Sino talabaga bilim berishda oʻqituvchining pedagogik mahorati va masʼuliyatli burchi masalasiga alohida toʻxtalib, oʻqituvchi bolalarga bilim berishga kirishishidan avval, ularning xulq – atvorini oʻrganishi va bilimlarini tekshirib koʻrishi, qiziqishini, nimaga qodir ekanligini tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, murabbiylarga shunday yoʻl – yoʻriqlar beradi:

- bolalar bilan muomilada bosiq, jiddiy boʻlishi, berayotgan bilimning talabalar qanday oʻzlashtirib olayotganiga eʼtibor berishi;
- taʼlimda turli oʻqitish usullari va shakllaridan foydalanishi;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;



- fanga qiziqтира olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir soʻzning bolalar xissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishish zarur.

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida – alohida oʻqitishdan koʻra jamoa tartibida oʻqitishni afzal deb biladi. “Oʻquvchilar birga boʻlganda bir – birlari bilan gaplashadilar va bu bilan oʻz xotiralari va nutqini rivojlantiradilar” – deydi.

Muhammad Taragʻay Ulugʻbek (1394-1449) Movarounnaxr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilm dargohiga aylantiradi. Madrasalarning peshtoqiga esa: “Bilimga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan hadisda hikmatni yozdirib qoʻyadi. Madrasalardagi oʻquv tizimini isloh qilib, falakiyot, matematika, geografiya kabi aniq fanlarni oʻqitishni joriy etdi. Taʼlim mazmunining sifatini oshirdi va oʻqish – oʻqitish uslubini yangilashga jiddiy eʼtibor berdi. Madrasada olgan nazariy bilimlarni, rasadxonada amaliy mashgʻulotlar oʻtkazishni yoʻlga qoʻydi. Muddarislarning masʼuliyatini va pedagogik mahoratini oshirishga alohida eʼtibor berdi. Ulugʻbekning fikricha, talabalarni bilim olishni istamasligi va zerikishi muddarislarning uʻquvsizligidandir, deydi. Chunki bunday muddaris – tarbiyachilar taʼlim usullarini notoʻgʻri qoʻllash bilan talabalarning bilimga qiziqishini soʻndiradi. Muddaris, avvalambor, oʻzini tarbiyalashi, bilim va muddarislik malakalarini egallashlari lozim, deydi. Darsliklar qaysi fan, voqea, hodisani aks ettirishidan qatʼiy nazar, hayot haqidagi haqiqatdan uzoq boʻlmasligi va yangi mazmun bilan boyitib borilishi kerak. Ulugʻbek darsliklar qanchalik mazmunli va qiziqarli boʻlmasin, taʼlim jarayonida oʻqituvchi asosiy oʻrinda turishi, oʻz pedagogik mahorati bilan namuna boʻlishi kerakligini alohida taʼkidlaydi. Mirzo Ulugʻbek oʻz madrasasida mustaqil mutoala qilish – bilim manbaidir, degan gʻoyani ilgari suradi.

Alisher Navoiy (1441-1501) oʻzi barpo etgan “Ihlosiya” madrasasida oʻz zamonasining yetuk muddarislarni yigʻdi va ilm izlash har bir talabaning aqliy kamolatga yetishishida ilm – fanning ahamiyatini koʻrsatib, jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni



tarqatuvchi olimu fozillarni xurmat qilishlarini, e'zozlashlarini uqtirdi. Alisher Navoiyning asarlarida maktab va madrasalardagi ta'lim – tarbiya usullari, ta'lim olish tamoyillari, talabalarga ta'lim beradigan muallimlar, muddaris va ustoz murabbiylarning o'zlari bilimli, dono va tarbiyali, yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarurligi g'oyasi ta'limda yetakchi o'rinda bo'lishini uqtirdi. Inson faoliyati o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga ko'ra bir – biridan farq qiladi. Masalan, ijodiy faoliyat, ilmiy faoliyat, pedagogik faoliyat, tadbirkorlik faoliyati, o'quv – biluv faoliyati, boshqaruv faoliyati va innovatsion faoliyat kabilar. Faoliyatning mazmuni, shart – sharoitlari, vositalari o'zgarib borishi natijasida insonning axloqiy madaniyati takomillashib boradi. Bizga ma'lumki pedagogik faoliyat jamiyatning ta'lim – tarbiyaga bo'lgan extiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy faoliyatlar va milliy fazilatlarini shakllantirish ilmiy asoslangan reja dasturiga muvofiq amalga oshirish, ya'ni yosh avlodni turmushga, hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zaruriy faoliyat hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Sharqda ta'lim va tarbiyaga e'tibor azaldan rivojlanib kelgan. Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlar ajdodlarimizning ishlarini davom ettirayotganligimizdan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-son.31.12.2019-yil "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasi. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Muroaaajatnomasi. <https://www.gazeta.uz>
3. M.Sh. Temirov "Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning konsvptual asoslari". <https://wordlyknowledge.uz>